

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**5210200-Psixologiya (amaliy psixologiya) ta'lim yo'nalishi  
bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat  
attestatsiya sinovi**

**DASTURI**

*2023/2024 o'quv yili*

**Tuzuvchilar:**

U.D. To'rxonov  
M.A. Maxsudova  
Z.B. Kurbanova  
A.G'. Turg'unboyeva

NamDU psixologiya kafedrası mudiri  
NamDU "Psixologiya" kafedrası dotsenti  
NamDU "Psixologiya" kafedrası dotsenti  
NamDU psixologiya kafedrası dotsenti

**Taqrizchilar:**

N. Xalilova

O'R jamoat xavfsizligi universiteti "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash" kafedrası professori, ps.f.d.(DSc)

**D. Orifboeva**

NamDTI "Pedagogika va psixologiya" kafedrası mudiri, psixologiya fanlari doktori (PhD),

5210200- Psixologiya ( amaliy psixolgiya) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi psixologiya kafedrasining 2024-yil «19» yanvardagi № 6-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri




U.D.To'rxonov

5210200-Psixologiya ( amaliy psixolgiya) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat universiteti Kengashining 2024-yil «18» mart dagi № 9, -sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Kengash kotibi



A.To'xtaboyev



## I. UMUMIY QOIDALAR

1. 5210203-Psixologiya (amaliy psixologiya) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o'rinlarda – **Dastur**) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 22 maydagi 160-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizom, 2018 yil 10 sentyabrdagi 20-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash qoidalari", 2020 yil 14 avgustdagi 418-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "5210200-Psixologiya (amaliy psixologiya) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" (keyingi o'rinlarda – **Malaka talablar**) hamda № B 5210200-20 tartib raqami bilan ro'yxatga olingan o'quv rejasining (keyingi o'rinlarda – **O'quv rejas**) umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o'rinlarda – **Attestatsiya sinovi**) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

3. Attestatsiya sinovini topshirishga o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga ruxsat beriladi.

4. Attestatsiya sinovi O'quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining barchasini qamrab oladi hamda sinov topshiriqlari ushbu fanlar o'quv dasturlari asosida tuziladi.

5. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

## II. ATTESTATSIYA SINIVI SHAKLI VA MUDDATI

6. 2023/2024 o'quv yilida 5210200-Psixologiya (amaliy psixologiya) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi –axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda test shaklida o'tkaziladi.

7. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shakli o'zgartirilishi mumkin emas.

8. Attestatsiya sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga yetkaziladi.

### **III. ATTESTATSIYA SINIVI SAVOLNOMASI**

9. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining

- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;

- kasbiy faoliyatga;

- umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi O'quv rejasida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

### **UMUMIY PSIXOLOGIYA**

1. Psixologiya fani predmeti, vazifalari, ob'ekti va ahamiyati.

2. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi.

3. Psixologik maktablar.

4. Psixologiya tarmoqlari.

5. Psixologiya fani rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari.

6. Psixolog faoliyatini ko'rinishi va sohalari.

7. Psixologning faoliyat ko'rinishlari.

8. Ta'lim tizimida psixologik faoliyat.

9. Tibbiyot sohasida psixologik yordam.

10. Ijtimoiy munosabatlar sohasida psixolog faoliyati xususiyatlari.

11. Mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiya.

12. Iqtisod va biznes sohasida psixologiya.

13. Kadrlarni tanlash va boshqarish psixologiyasi.

14. Huquqiy sohasida psixologik faoliyat.

15. Sport sohasida psixologik ish.

16. Konsultativ psixologiya.

17. Taraqqiyot psixologiyasi.

18. SHaxs psixologiyasi.

19. Psixokorreksiya va psixoterapiya

20. Inson psixikasini umumiy qonuniyatlari,

21. Psixika tizimi va funktsiyalari.

22. Psixikani rivojlanish bosqichlari.

23. Xatti–harakat shakllari.

24. Tug'ma va individual xatti -harakat. SHaxsni o'rganish.

25. Psixoanaliz nazariyasi psixik voqelikni ilmiy bilish shakli sifatida.

26. Z.Freydning klassik psixoanalizi.

27. K.Yungning analitik psixologiyasi.
28. A.Adlerning Individual psixologiyasi.
29. O'rgatish qonuni (E. Torndayk). Dj.B.Uotson va E.K. Tolmenning insonga nazariy qarashlari.
- 30.Gumanistik psixologiyaning asosiy printsiplari.
31. Olportning shaxs qirralari nazariyasi.
32. Motivlarning funktsional avtonomiya printsiipi.
- 33.Zarurat motivlari va taraqqiyot motivlari.
- 34.A.Maslouning o'zini o'zi kamol toptirish nazariyasi.
- 35.K.Rodjers nazariyasi va kongruentlik tushunchasi.
- 36.Dj. Kelli shaxslik konstruktleri nazariyasi.
- 37.Konstrukt tushunchasi.
38. K.Levin maydon nazariyasining asosiy printsiplari.
39. Rus psixologiyasidagi shaxsga doir yondashular.
- 40 Motiv turlari
41. Go'daklik davri va ilk bolalik davri motivlari (1-3 yosh).
42. Maktabgacha yosh, kichik maktab yoshi motivlari.
43. O'rta maktab yosh davri motivlari.
44. Yuqori sinf o'quvchilik davri.motivlari.
45. Mehnat faoliyati motivatsiyasi.
- 46.O'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini tarkib topish bosqichlari.
47. Mehnat motivatsiyasining umumiy tavsifi
- 48.Emotsional kechinmalarning umumiy aniqligi.
49. Emotsional kechinmalar klassifikatsiyasi.
50. Affektlar, ehtiros va kayfiyat.
- 51.Emotsiyaning asosiy funktsiyalari.
- 52.“Iroda” tushunchasini rivojlanish tarixi.
53. Irodani aniqlash.
54. Irodaviy jarayonlar bosqichlari.
- 55.Sezgi va idrokni o'rganishdagi yondoshuvlar.
56. Sezgilar turlari va qonuniyatlari.
57. Pertseptiv obrazlarni predmetliliigi, idrokning yaxlitligi va o'zgarmasligi.
58. Idrokning konstantligi, idrokning konstantlik nazariyasi.
59. Yorug'likni, shaklni, o'lchamni idrok qilishda konstantlik.
- 60.Diqqatning psixik o'rni haqidagi bahslar va uning tabiati.
61. Diqqatning mustaqil faoliyat ekanligi yoki bu boshqa psixik faoliyat uchun ham xosligi.
- 62.Diqqat turlari: ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyoriydan keyingi.
- 63.Xotira haqida umumiy tushuncha.
64. Xotira va shaxs.
65. Xotira jarayonlari va turlari.
66. Xotira jarayonlari.
67. Esda olib qolish.
- 68.Esda saqlash.
- 69.Esga tushirish.

70. Tanish.
71. Unutish.
72. Xotira turlari klassifikatsiyasi.
73. Tafakkur haqida tushuncha.
74. Tafakkur turlari.
75. Tafakkur turlari muammosi va ularni ajratish asoslari, tafakkurning boshqa turlari.
77. Til va uning strukturasi.

### **EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA**

1. V. Vundtning eksperimental psixologiya va yo'nalishiga doir, amaliy izlanishlarning mohiyati va E. Titchenerning laboratoriya metodlari.
2. Eksperimental psixologiyaning hozirgi davrdagi paradigmasi.
3. Ilmiy tadqiqotning bosqichlari, turlari. Nazariya va uning tarkibiy tuzilishi.
4. Ilmiy muammo.
5. Psixologik eksperiment tushunchasi.
6. Noeksperimental psixologik metodlar.
7. Noeksperimental metodlar, so'rovnoma bilan uzviy bog'liqligi.
8. Psixologik tajribalarda so'rovnoma metodlari.
9. Psixologik metodlarning asosiy mohiyati.
10. Psixologik tadqiqotning metodlari.
11. Psixologik metodlarning umumilmiy klassifikatsiyasi.
12. Adabiyotlar bilan ishlash, va uni tizimga keltirish.
13. Eksperimental tadqiqotni tajriba sinovini tashkillashtirish. Abstraktsiya va konkretizatsiya.
14. Induktsiya va deduktsiya.
15. Analiz va sintez.
16. Klassifikatsiya, taqqoslash va umumlashtirish.
17. Kuzatish tadqiqot metodi sifatida.
18. Suhbat metodi.
19. Suhbat metodining umumiy xarakteristikasi.
20. So'rov o'tkazish tasniflari.
21. Intervyu usuli.
22. Tadqiqot praktikumi.
23. Biografik metod asosida shaxs xarakteristikasini tuzish.
24. Kontent-tahlil metodi.
25. SHaxsni yo'nalganligini o'rganish anketasi.
26. Bilish jarayonlari va qiziqishlarning uzviy bog'liqligini o'rganish.
27. Temperamentning xususiyatini o'lchashning G. Ayzenkning so'rovnomasi
28. Dastlabki psixologik o'lchov nazariyalari.
29. O'lchov shkalalarining turlari.
30. Psixologik o'lchovlarining turlari.
31. Sensor deprivatsiya tushunchasi.
32. Sezgi pog'onalari va analizatorlarning sezgirligi.
33. Absolyut va differentsial sezgirlik.

34. Diqqat konsentratsiyasining o'quv jarayonidagi o'rnini o'rganish va konsentratsiya qobiliyatini baholash.

35. Qisqa muddatli ko'rish xotirasini o'rganish.

36. Qisqa muddatli ko'rish xotirasini baholash.

37. Qisqa muddatli, obrazli, mexanik va mantiqiy xotirani o'rganish.

38. Intellekt tushunchasi.

39. Intellekt nazariyalari.

40. Spirmen, Kettel, Bine, Gilford va boshqa tadqiqotlari. Intellektual rivojlanishni o'rganish metodlari.

### **UMUMIY PSIXODIAGNOSTIKA**

1. Psixologik diagnostika tushunchasi psixologik tashxis qo'yish usullari va metodlarining ilmiy tizimi sifatida.

2. Psixodiagnostika bilan differentsial psixologiyaning, testologiyaning, amaliy psixologiyaning va psixometrikaning o'zaro munosabatlari.

3. Psixodiagnostikaning predmeti.

4. Psixodiagnostikani qo'llanilish sohalari.

5. Psixodiagnostik tadbirlarni tashkil etish etikasi.

6. Psixologik testlarni qo'llash xususiyatlari.

7. Psixologik test tavsifi.

8. Testlarni bajarishda amaliy ko'nikmalarning o'rni.

9. Psixologik testlashtirishning etikaviy muammolari.

10. Psixologik testlashtirishning tarixiy ildizlari.

11. Psixodiagnostik jarayonlarning asosiy bosqichlar.

12. Ma'lumotlarni qayta ishlash va talqin qilish bosqichi.

13. Psixodiagnostika metodlari.

14. Psixofiziologik metodikalar.

15. Apparaturalar yordamida xulqni o'rganish metodikalar.

16. Javoblarni tanlashga asoslangan ob'ektiv testlar.

17. So'rovnomalar. Proektiv metodikalar.

18. Kontent-analiz.

19. Psixosemantik metodlar.

20. Reyting-shkalalashtirish bilan uyg'unlashtirilgan kuzatish.

21. Sotsiometriya metodi.

22. Standartlashtirilgan analitik kuzatish.

23. Suhbat va so'rovnoma.

24. Rolli o'yinlar.

25. Diagnostikaga o'rgatuvchi eksperiment.

26. Maxsus metodlar.

27. Psixologik testlashtirish shakllari.

28. Test batareyalari.

29. Verbal va noverbal testlar.

30. Tezlik va natijalilik testlari.

31. Individual va guruh testlar.

32. Blankli, predmetli, apparaturali va kompyuter testlari.

33. Og'zaki va yozma testlar.

34. Psixodiagnostika metodlari tasnifi.
35. Ob'ektiv testlar.
36. Assessment-markaz va alyt-assessment personalni kompleks baholash metodlari sifatida.
- 37 Umumiy va differentsial psixometrika.
38. Psixodiagnostika metodikalarida o'lchashga va ishlab chiqishga qo'yiladigan asosiy talablar.
39. Standartlashtirish (o'lchash) metodlari va ekspert (klinik) metodlar.
41. Ishonchlilik turlari va koeffitsientlari.
42. Validlik va uning turlari.
43. Test me'yorlari va ularni reprezentativligi.
44. SHaxs to'g'risida ma'lumot olish usullari: L-ma'lumot, Q-ma'lumot, T-ma'lumot, shaxsni tadqiq etishning proektiv usullari.
45. Inson xulq-atvorida asab tizimi xususiyatlarini namoyon bo'lishi.
46. Ko'p omilli shaxs so'rovnomalari.
47. SHaxsning o'rganishda proektiv metodikalarning nazariy asoslari Proektiv metodikalarning turlari.
48. SHaxsdagi aktsentuatsiyalarni diagnostika qilish metodikalari. O'zini o'zi anglash psixodiagnostikasi.
49. SHaxs qadriyatlarini diagnostikasi metodikalari
50. Insonning funktsional holatlari va ish qobiliyatlari baholash metodikalari.
51. SHaxsning emotsional sohasi diagnostikasi.
52. Motivatsiya va intilish darajasi diagnostikasi.
53. Diqqat va sensomotor reaksiyalar psixodiagnostikasi.
54. Pedagogik diagnostika.
55. Intellekt diagnostikasi.
56. Qobiliyatni o'rganishga mo'ljallangan alohida testlar va test batareyalari (umumiy qobiliyatlar batareyasi - UQB(GATB)).
57. Guruhdagi shaxslararo munosabatning tuzilishini o'rganish. 63. SHaxslararo munosabat tizimida shaxsning holatini o'rganish.
58. Guruhdagi jipslikni o'rganish.
59. Sotsiometriya. Referentometriya.
60. Kasbiy yo'nalganlik diagnostikasi.

## **SOTSIAL PSIXOLOGIYA**

1. Ijtimoiy psixologiyaga kirish.
2. Ijtimoiy psixologiyaning shakllanish tarixi.
3. Ijtimoiy psixologiya metodologiyasi.
4. Ijtimoiy psixologiyada asosiy tushunchalar.
5. Psixoanaliz
6. Bixeviorizm.
7. Sotsiometriya, guruhli dinamika maktabi.
8. Kognitivizm.
9. Interaksionizm.
10. Insonparvarlik psixologiyasi.



11. Tranzakt tahlil.
12. Ekzistentsial psixologiya.
13. Guruhlar psixologiyasi, etnopsixologiya, oila psixologiyasi.
14. “Xalqlar psixologiyasi” uning tarixiy sabablari va vazifalari
15. Katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasini tadqiq etish tamoyillari.
16. Etnik guruhlarining psixologik xususiyatlari.
17. Guruhlararo munosabatlar psixologiyasi sotsial psixologiyaga nisbatan yangi soha.
18. CHet el sotsial psixologiyasida guruhlararo munosabatlarning o’rganilishi.
19. Kichik guruhning psixologik jamoa sifatida rivojlanishi.
20. Kichik guruhning faoliyat samarasi.
21. Guruh faoliyati samarasiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar.
22. Kichik guruhni boshqarish.
23. Ijtimoiy psixologiyada ziddiyatlar muammosi.
24. O’zaro ta’sir jarayonining komponentlari.
25. O’zaro ta’sir turlari.
26. Sotsial psixologiyada kooperatsiya va konflikt.
27. O’zaro ta’sirning eksperimental sxemasi.
28. Guruh tuzishning determinantlari.
29. Guruh bosimi.
30. Konformlik turlari

## **PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA VA PSIXOLOGIYANI O’QITISH METODIKASI**

1. Pedagogik faoliyat psixologiyasi ta’lim va tarbiyaning psixologik jabhalari.
2. Pedagogik psixologiya tuzilmasi.
3. Pedagogik psixologiyaning asosiy muammolari.
4. Rivojlanishda senzitiv davr muammolari.
5. Bolaning psixik rivojlanishi va pedagogik ta’sirning o’zaro aloqadorligi muammosi.
6. Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish bosqichlari.
7. Pedagogik psixologiyaning metodlari
8. O’rganish turlari, shart-sharoitlari va mexanizmlari. Faoliyat turlari.
9. O’quv faoliyati nazariyasi.
10. O’quv motivatsiyasi: tushuncha va tuzilma.
11. O’quv qiziqishlari.
12. Tarbiya psixologiyasi: maqsadi, vositalari va metodlari
13. Muloqot va tarbiya.
14. Pedagog shaxsiga qo’yiladigan psixologik talablar.
15. Pedagogning umumiy va maxsus xususiyatlari.
16. Pedagogik baholash psixologiyasi.
17. Psixologiya o’qitish metodikasi predmeti, uning tarkibi, vazifalari va funktsiyalari.
18. Psixologiya o’qitishning umumiy va maxsus metodikalari.

19. Psixologiya o'qitish metodikasining metodologik asoslari.
20. Ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv.
21. Psixologiya kursida o'quv vazifalari tizimi.
22. O'quv vazifalari taksonomiyasi va ta'lim jadalligini boshqarish.  
D. Tollingerovanning o'quv vazifalari taksonomiyasi.
23. O'rganishning zamonaviy kontseptsiyalari.
24. Predmetli-yo'naltirilgan texnologiyalar.
25. Differentsiyalashgan o'qitish texnologiyalari va guruhiiy texnologiyalar.
26. Rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi.
27. Tabiiy texnologiyalar.
28. Jamoaviy o'qitish usuliga asoslangan texnologiyalar.
29. SH.A. Amonashvili texnologiyasi.
30. L.V. Zankov tizimi. Elkonin –Davidov tizimi.
31. I.S. Yakimanskaya va M. Montessori tizimi
32. A. Nill pedagogikasi (Sammexill maktabi). SHaxsga yo'naltirilgan pedagogika.
33. Psixologiyaning gumanitar fan sifatidagi o'ziga xos tarkibi va psixologiya o'qitish maqsadi.
34. Psixologiya o'qitishning o'quv rejasi, dasturi va psixologiya o'quv fani sifatida.
35. Psixologiya rivojlanishining asosiy tendentsiyalari va psixologik ta'lim.
36. Oliy va o'rta maktabda psixologiyani o'qitish tarixi.
37. Ma'ruza, uning turlari.
38. Laboratoriya ishi.
39. Kurs loyihasi.
40. Pedagogik va ishlab chiqarish amaliyoti.
41. Konsultatsiyalar.
42. Bitiruv malakaviy loyihalari.
43. Talabalar mustaqil ishi.
44. Muammoli o'qitish.
45. Dasturlashtirilgan o'qitish.
46. Ishga oid o'yinlar.
47. Modulli o'qitish.
48. Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyati.
49. Pedagogik nazorat funktsiyalari va shakllari.
50. Bilimlarni baholash.

### **INDIVIDUAL VA GURUHIY KONSULTATSIYA**

1. Sotsial-psixologik trening haqida umumiy tushuncha Psixologik faoliyatda guruhiiy jixatdan ishlashning tarixi.
2. Sotsial psixologik trening haqida umumiy tushuncha.
3. “Trening”, “Guruhiiy psixologik faoliyat”, “Guruhiiy psixoterapiya”, “Psixoterapevtik guruh” tushunchalarning mazmuni va bog'liqligi.
4. Sotsial psixologik treningni asosiy tiplari va ko'rinishlari.

5. Trening boshlovchisi shaxsiga va tayyorligiga qo'yiladigan talablar.  
6. Guruhiy konsultantning axlokiy me'yorlari.

7. Guruhiy psixologik konsultatsiyaning asosiy bosqichlari va guruh dinamik jarayonlari.

8. Guruh dinamik haqida umumiy tushuncha.

9. Sotsial psixologik treningni asosiy usullari.

10. Psixodrama.

11. Psixodramaning tarixi va rivojlanishi.

12. Ya.L. Moreno psixodrammani asoschisi sifatida.

13. Rolli o'yinlar.

14. Ekzistentsial terapiyaning maksadi.

15. SHaxsiy yunaltirilgan yondoshuv.

16. Kontakt o'rnatish.

17. Ishonchli muhitni yaratish.

18. Guruh faoliyatda geshtalt Himoya funktsiyalari va yetuklik.

19. Harakatli guruh terapiya.

20. Korrektsion ishlar ko'rinishlari va tushunchalari.

21. Psixologik korrektsiya, psixoterapiya, psixologik trening tushunchalari

22. Psixokorrektsion jarayonining maqsad va vazifalari.

23. Psixologik korrektsiyani tashkil etishning metodologik asoslari.

24. Psixologik korrektsiyani tashkil etish uchun psixologik ma'lumotlarni olish xususiyatlari.

25. Guruh psixokorrektsiyaning asosiy metodlari.

26. Guruh munozara.

27. Psixogimnastika.

28. Proektiv rasmlar.

29. Musiqiy terapiya.

30. Qo'shimcha psixokorrektsion metodlar va usullar.

31. Psixologik yordam tizimida konsultativ psixologiyani o'rni.

32. Konsultativ psixologiya va psixokorrektsiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishi.

33. Psixologik trening, psixoterapiya, psixologik korrektsiya, diagnostika kabi turli ko'rinishdagi psixologik yordamni qiyosiy tahlil qilish orqali psixologik konsultatsiyaning o'ziga xosligini aniqlash.

34. Konsultativ yordam tamoyillari.

35. Konsultatsiyani o'tkazish bosqichlari va strukturasi.

36. Patsient bilan tanishish va suhbatni boshlash.

37. Konsultatsiyani o'tkazishning besh qadamli modeli.

37. Xavotirlangan patsientlar konsultatsiyasi.

39. Fobiya va qo'rquv holati konsultatsiyasi.

40. Tajovuzkor va qasoskorlik kayfiyatidagi patsientlar psixologik konsultatsiyasi.

41. "Motivatsiyalashmagan" patsientlar konsultatsiyasi.

42. Yuqori talab qo'yuvchi patsientlar konsultatsiyasi.

43. O'zini o'zi ayblash holati konsultatsiyasi.

44. Yig'loqi patsientlar konsultatsiyasi.
45. Isterik shaxslar konsultatsiyasi.
46. Paranoidal buzilishlar konsultatsiyasi.
47. SHizoid shaxslarning psixologik konsultatsiyasi.
48. Asotsial shaxslar konsultatsiyasi.
49. Alkogolizm konsultatsiyasi.
50. Psixosomatik buzilishlar konsultatsiyasi.
51. Suitsidal ahd va tushkunlik holati konsultatsiyasi.
52. Yaqinlarini yo'qotish bilan bog'liq konsultatsiya.

### **BOSHQARUV VA IJTIMOY SOHALARDA PSIXOLOGIK XIZMAT**

1. Psixologik xizmatni tashkil etishning uch davri
2. Psixologik xizmatni tashkil etish muammolari.
3. Psixologiya fani va amaliyoti.
4. Amaliy psixologiyaning ilmiy asoslari.
5. Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyati.
6. Sotsial tashkilot (xizmat) faoliyatini rejalashtirish.
7. Psixologik xizmatda maqsadli boshqaruv: maqsadli boshqaruv tushunchasi (MBO), psixologik xizmatda maqsadli boshqaruv.
8. Psixologik xizmatda samarali boshqaruv tizimini shakllantirish bosqichi.
9. O'zaro maqsad qo'yish.
10. SHaxsni o'zini o'zi kamol toptirishi. G. Olport nazariyasi.
11. "Psixolog" kasbining rivojlanishi.
12. Amaliy psixolog kasbi.
13. Amaliy psixologning maxsus qobiliyatlarini sotsial psixologik asoslari.
14. N.A. Aminov va M.V. Molokanov eksperimenti.
15. Ish boshlayotgan konsultantning oltin qoidasi.
16. Psixolog kasbiy sifatlarini baholash.
17. Xizmatda xodimlarni saralash.
18. Intervyuni uyushtirish va suhbat o'tkazish.
19. Sotsial xizmatda personalni boshqarish.
20. Superviziya: tushuncha, funktsiya, formalar.
21. Psixologning ish yuklamalarini boshqarish.
22. Sotsial ish xizmatidagi Psixologik xizmatda xodimlarning kasbiy o'sishini va motivatsiyasini boshqarish.
23. Ta'lim tizimida psixologik xizmat.
24. Psixologik xizmat tuzilishi, uning vazifalari.
25. Psixologik xizmatda amaliy psixologning o'rnini va uning kasbiy mutaxassislashtirish: psixodiagnostika, maslahat, psixoprofilaktika, psixokorreksiya.
26. Amaliy psixologning huquq va majburiyatlari.
27. Ushbu huquqlarni huquqiy, sotsial va axloqiy himoyasi.
28. Ta'lim tizimi psixologi faoliyatidagi bahsli savollar.

## **HUQUQ TARTIBOT IDORALARI VA HARBIY SOHADA PSIXOLOGIK XIZMAT**

1. Huquq tartibot idoralari va huquq sohasida psixologik xizmatning predmeti, vazifalari.
2. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyat samarasini oshirishda amaliy psixologiyani ahamiyati.
3. Huquqni muhofaza qilish organlarida psixologik xizmatning vazifasi.
4. Tezkor xizmat xodimlariga psixologik ta'sir ko'rsatish.
5. Huquq muhofaza qilish organlarida shaxslararo alokani o'rnatishda psixologik xizmatning o'rni.
6. Psixologik xizmat fanining metodlari: Kuzatish metodi, suxbat metodi, xronometraj metodi, sahnalashtirish metodi, anketa metodi, test metodi, va inson faoliyati mahsulini analiz qilish metodi.
7. Psixik jarayonlarni tadqiq qilishning eksperimental (tajriba) metodi.
8. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini guvoh, jabrlanuvchi, gumonlanuvchi va ayblanuvchilar o'rtasida psixologik muloqotni o'rnatish.
9. Sud-psixologik ekspertizasini tayinlash tartibi. Sud faoliyatida sud-psixologik ekspertizasini tayinlash.
10. Yuridik shaxslarni ish bilan ta'minlashda psixologiyaning tutgan roli Professional orientatsiya va yuridik shaxslarni tanlash.
11. Mutaxassislarni ishga joylashtirish va ularni boshqarishda professional adaptatsiya.
12. Yosh mutaxassislarni adaptatsiya jarayoni.
13. Huquqni muhofaza qilish organlarida xodimlarning professional rivojlanishi.
14. Mutaxassislarning shaxs sifatida rivojlanishi.
15. Mutaxassislarni psixologik tayyorlash va ularni faoliyatini boshqarish.

### **Psixologik trening asoslari**

1. Psixologik faoliyatda guruhij jihatdan ishlashning tarixi.
2. Sotsial psixologik trening haqida umumiy tushuncha.
3. "Trening", "Guruhij psixologik faoliyat", "Guruhij psixoterapiya", "Psixoterapevtik guruh" tushunchalarning mazmuni va bog'liqligi.
4. Sotsial psixologik treningni asosiy tiplari va ko'rinishlari.
5. Guruh ko'rinishlari. Psixologik faoliyatda guruhij usulning afzalliklari va kamchiliklari.
6. Trening boshlovchisini shaxsiga va tayyorligiga qo'yiladigan talablar. Guruhij konsultantning kasbiy ko'nikmalari.
7. Guruh ishtirokchilarining xuquqlari.
8. Guruhij dinamika haqida umumiy tushuncha.
9. Guruhij dinamikada guruhning tuzilishi asosiy element sifatida.
10. Guruhij dinamikada sotsiometriya asosiy usul sifatida.
11. Sotsial psixologik treningni tashkil qilish va paydo bo'lishi.
12. Guruhij konsultantning roli va funksiyalari.
13. Psixodrammaning tarixi va rivojlanishi.
14. Rolli o'yinlar.

15. Ekzistentsial terapiyaning maqsadi.
16. SHaxsiy yo'naltirilgan yondoshuv
17. Guruhiy faoliyatda geshtalt yondoshuv
18. Erik Bern tranzakt tahlilning asoschisi sifatida.

### **Mehnat va muhandislik psixologiyasidan savollari**

1. Mehnat psixologiyasining predmeti va uning mohiyati.
2. Mehnat psixologiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi, mehnat psixologiyasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
3. Mehnat psixologiyasi tadqiqot metodlari haqida umumiy tushuncha.
4. Jamoalararo sog'lom muhit yaratish.
5. Professiografiyaning maqsadi., tahlili, mazmuni, uning tuzulishiga qo'yilgan talablar.
6. Mehnat faoliyatining barcha turlarida mehnat ekspertizasining asosiy vazifalari. Mehnat ekspertizasining ob'ekti.
7. Kasb tanlashga yo'naltirish va kasb tanlash tushunchalarining mazmuni.
8. Kasbiy targ'ibot.
9. Kasb bo'yicha maslahatlar o'tkazish.
10. Turli kasblarni insonga qo'yadigan talablari.
11. Kasb tanlashning usullari.
12. Kasbiy qobiliyatlar va ularni aniqlash.
13. O'quvchining kasbga bo'lgan axloqiy motivlari.
14. Kasbga ko'nikish haqida tushuncha.
15. Organizmning ishlab chiqarish muddati va mehnat rejimiga moslashish tarzidagi biologik ko'nikish, sotsial ko'nikish, psixologik ko'nikish.
16. Mehnatni tashkil qilish psixologiyasi haqida tushuncha.
17. Mehnatga layoqatlik va mehnat unumdorligini ta'minlovchi omillar.
18. Mehnat rejimi haqida umumiy tushuncha.
19. Mehnatdagi charchoqdan dam olish.
20. Mehnat psixogigienasi.
21. Kasbiy toliqish.
22. Ishga yaroqlilik tushunchalari.
23. Mehnat sifati haqida tushuncha.
24. Mehnat sifatini ta'minlashning psixologik omillari.
25. Mehnat xavfsizligiga erishish yo'llari.
26. Muhandislik psixologiyasi fanining muammolari, vazifalari.
27. Inson – mashina sistemasi.
28. Ishlab chiqarish jarayonida operator ishining ob'ektlari.
29. Operator faoliyatining psixologik tuzulishi.
30. Operator faoliyati klassifikatsiyasi.

### **IV. ATTESTATSIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI**

11. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholashda 5 baholik tizim qo'llaniladi.

13. Talabaning Attestatsiya sinovidagi natijalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

14. Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'tkaziladigan test sinovlarida har bir talabaga 100 (yuz) ta savoldan iborat test varianti taqdim etiladi.

Har bir test variantida mazkur Dasturga kiritilgan fanlarga doir savol (topshiriq)lar nisbati o'zaro mutanosib taqsimotda bo'lishi lozim.

Talaba bilimi Attestatsiya sinovida to'g'ri topilgan test savollari soniga nisbatan quyidagi taqsimotda baholanadi:

- 86 ta va undan ko'p savollarga to'g'ri javob berilganda – 5 (“a’lo”);
- 71 tadan 85 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 4 (“yaxshi”);
- 55 tadan 70 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 3 (“qoniqarli”);
- 54 ta va undan kam savollarga to'g'ri javob berilganda – 2 (“qoniqarsiz”).

Test shaklidagi Attestatsiya sinoviga 3 (uch) soat vaqt beriladi.

Test shaklidagi Attestatsiya sinovi talabalar sig'imiga qo'yiladigan texnik talablarga mos, kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv xonalari (hudud)da o'tkaziladi.

15. Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda Attestatsiya sinovlari natijalari Komissiya tomonidan e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat davomida apellyatsiya berishi mumkin.

Talabaning apellyatsiya murojaati universitet rektori buyrug'i asosida tuziladigan Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko'rib chiqiladi va uning natijasi bo'yicha qaror qabul qilinadi.

## **V. ATTESTATSIYA SINOVI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI VA QO'SHIMCHA USLUBIY KO'RSATMALAR**

### **16. Dasturni o'zlashtirish bo'yicha foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абрамова Г.С. Практическая психология. – М.,2000.
2. Алешина Ю.Е. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование.- М.,2000.
3. Akbarov S.Yu. Rivojlanish psixologiyasi- Namangan-2023
4. Арифходжаева И.Х. Ички ишлар идоралари ходимлари фаолияти психологияси. Тошкент 2008- 432 б.
5. Бадмаев Б.Ц. Методика преподавания психологии. М., 2001.
6. Бадмаев Б.Ц. Психология: как ее изучить и усвоить. М.,1997.
7. Бодалев А.А, Столин В.В. Общая психодиагностика. -СПб.:Речь,2000.-440
8. Бурлачук Ф.Е. Психодиагностика. СПб.: Питер, 2007.-351 с.
9. Васильев В.Л. Юридическая психология. ЮНИТИ Санкт - Петербург, 2014
10. Габай Т.В. Педагогическая психология. М., 1995
11. Гулина М. Терапевтическая и консультативная психология.- СПб.,2001
12. Дружинин В.Н. Экспериментальная психология. 2-е изд., перераб. и доп. СПб: Изд-во «Питер», 2000. 320 с.
13. Дубровина И.В. Школьная психологическая служба. М., 1991.
14. Ильин Е. П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2002. – 512 с.
15. Ильин Е. П. Психология воли. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2009. – 368 с.



16. Ильин Е. Психология индивидуальных различий. М. 2003 г.
17. Карандашев В.Н. Методика преподавания психологии. СПб, 2005.
18. Каримова В.М. Ижтимоий психология. – Тошкент, 2012.
19. Kurbanova Z.B. Oribboyeva D. Pedagogik psixologiya va psixologiyani o`qitish metodikasi -Namangan “ Usmon Nosir mediya”-2022
20. Kurbanova Z.B. Oribboyeva D. Mehnat va muhandislik psixologiyasi Namangan “ Usmon Nosir mediya”-2022
21. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. – 320 с
22. Муллабоева Н.М., Психологияда математик статистик методларни қўллаш. Ўқув услубий қўлланма. Тошкент.2012, Мумтоз сўз-100 б.
23. Мухамедова Д.Г., Муллабаева Н.М., Расулов А.И. Умумий психология. Дарслик. – Тошкент, “Мумтоз сўз” 2018. -287б.
24. Общий психологический практикум: Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения/ Под ред. С.А.Капустина. СПб.: Питер, 2017. 480 с.
25. Педагогическая психология: Хрестоматия/Сост. В.Н.Карандашев, Н.В.Носова, О.Н.Щепелина. СПб.:Питер, 2006. 412 с.
26. Психологическая диагностика / Под ред. К.М. Гуревича, Е.М. Борисовой. СПб.: Питер, 2004.
27. Практикум по общей, экспериментальной и прикладной психологии: Учеб. пособие/В. Д. Балин, В. К. Гайда, В. К. Горбачевский и др. Под общей ред. А. А. Крылова, С А. Маничева. СПб: Питер, 2000. 560 с.
28. Расулов А.И. Умумий психодиагностика. –Тошкент, «LESSON PRESS» нашриёти, 2020. -280 б.
29. Расулов А.И. Психодиагностика.-Т., “Mumtoz so'z”-2010,-169 б.
30. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. М., 1989.
31. Рухиева Х.А. Суд - психологик экспертизаси. Т.2012. 386 б.
32. Столяренко А.М. Прикладная юридическая психология. ЮНИТИ М. 2011.
33. Столяренко Л.Д. Педагогическая психология. 2-е изд., перераб.и доп. Ростов н/Д: «Феникс», 2003. 544 с.
34. Хон Р.А. Педагогическая психология: Принципы обучения: Учебное пособие для высшей школы. 2-е изд. М: Академический Проект: Культура, 2005. 736 с.
35. G'avibova N.A., Jalilova S.X. Umumiyy psixodiagnostika. -T .: «Fan va texnologiya», 2018, 260 bet.
36. Ғозиев Э.Ғ. Психология. -Т., ЎзМУ «Университет», 2003.
37. Ғозиев Э.Ғ. Тафаккур психологияси. Тошкент: Университет ,1990.
38. Ғозиев Э. Ғ. Ижтимоий психология. – Тошкент., 2010.
39. Ғозиев Э.Ғ.. Психология ўқитиш методикаси. Т.: ЎзМУ, 2005.
40. Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. Психология фанларини ўқитиш методикаси. Т.: «Алоқачи», 2007.

## **VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

17. Dasturda belgilangan qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me'yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me'yorlar amal qiladi.

18. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi hamda universitetning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

19. Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.